

## PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

**Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna**

“Ma‘mun universiteti” NTM

“Biznesni boshqarish” kafedrası dotsenti, (PhD)

E-mail: [yusupova0155@gmail.com](mailto:yusupova0155@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada paxta-to‘qimachilik sohasida klasterlashtirishning iqtisodiy ahamiyati, uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi o‘rni hamda qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirishdagi ta‘siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda paxta yetishtirishdan tortib tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni yagona tizimda tashkil etish orqali resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va raqobatbardosh mahsulotlar hajmini oshirish imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Klaster, paxta hosildorligi, to‘qimachilik klasterlari, tendensiya, to‘qimachilik mahsulotlari, raqobatbardosh mahsulotlar, klasterlashtirish.

### Аннотация

В данной статье представлен научно-теоретический анализ экономического значения кластеризации в хлопчатобумажно-текстильном секторе, ее роли в повышении эффективности производства и влияния на формирование цепочки добавленной стоимости. Исследование подчеркивает возможности эффективного использования ресурсов, снижения производственных затрат и увеличения объема конкурентоспособной продукции за счет организации всех этапов, от выращивания хлопка до производства готовой текстильной продукции, в единую систему.

**Ключевые слова:** кластер, урожайность хлопка, текстильные кластеры, тенденция, текстильная продукция, конкурентоспособная продукция, кластеризация.

### Abstract

This article presents a scientific and theoretical analysis of the economic significance of clustering in the cotton textile sector, its role in increasing production efficiency and its impact on the formation of the value chain. The study highlights the potential for efficient resource use, reduced production costs, and increased volumes of competitive products by organizing all stages, from cotton cultivation to finished textile production, into a single system.

**Keywords:** cluster, cotton yield, textile clusters, trend, textile products, competitive products, clustering.

### KIRISH

2025-yilning 17-noyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev paxtachilik samaradorligini oshirish bo‘yicha yangi takliflar bilan tanishdi va qishloq xo‘jaligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari kengaytirdi. Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Prezidentning so‘zlariga ko‘ra, uning ulushi 20

foizni tashkil etadi, yillik ishlab chiqarish hajmi 467 trln. soʻmni tashkil etadi va sanoat sohasida 3,5 million kishiga ish bilan taʼminlandi. Oʻzbekistonning umumiy eksportining uchdan bir qismi yangi va qayta ishlangan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hisoblanadi. Paxta hosildorligini oshirish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi. Bunga erishish uchun kam unumdorlik va rivojlangan qishloq xoʻjaligi texnologiyalari va oʻsimliklarning ovqatlanishining yangi usullari bilan maqsadli ishlarni joriy etish, shuningdek agronomlar uchun oʻquv tizimini chuqur isloh qilish rejalashtirilmoqda. Paxtachilikda murabbiylikni joriy etish asosiy takliflardan biri boʻldi. 30 kvintdan kam boʻlgan 60 kvintdan yuqori boʻlgan tajribali fermerlar tayinlanadi. Murabbiylar qishloq xoʻjaligi xodimlarining malakasini oshirish institutida qayta oʻqitadilar va sertifikatlar olishadi[1-4].

### ADABIYOTLAR SHARHI

M. Porterning klaster nazariyasiga koʻra, bir hududda oʻzaro bogʻliq korxonalar, taʼminotchilar va xizmat koʻrsatuvchi tuzilmalarning jamlanishi iqtisodiy oʻsish va raqobat ustunligini taʼminlaydi[5].

Iqtisodchi olim I.Q.Rajabov fikricha, “Samaradorlik tushunchasi bu ishlab chiqarish jarayoni pirovard natijalarini oʻzida aks ettiruvchi iqtisodiy koʻrsatkich sifatida tushunilishi lozim. Iqtisodiy samaradorlik mohiyati nafaqat ishlab chiqarish natijalari va xarajatlar oʻrtasidagi arifmetik raqamlar bilan, balki foydali natijalarga erishish yoʻlida xarajatlar miqdorini kamaytirish bilan bogʻliq boʻlgan ishlab chiqarish, taqsimot va ayirboshlash munosabatlari orqali ifodalanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi xarajatlar va natijalar oʻrtasidagi arifmetik nisbatgina boʻlmasdan, balki ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettiruvchi iqtisodiy atama” hisoblanadi[6].

M. Abdullayev paxta-toʻqimachilik sanoatida klaster tizimini rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan holda, klasterlar faoliyatida eksport salohiyatini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va milliy brendlarni shakllantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan[7].

B. Xamdamov oʻz ilmiy ishlarida paxta-toʻqimachilik klasterlarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilib, fermer xoʻjaliklari bilan sanoat korxonalari oʻrtasidagi kooperatsiyani mustahkamlash klasterlarning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini taʼkidlaydi[8].

I. Karimov va A. Rahmonovlar qishloq xoʻjaligida klaster modelini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini oʻrganib, paxta-toʻqimachilik klasterlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga alohida eʼtibor qaratganlar[9].

### METODOLOGIYA

Maqola paxta-toʻqimachilik klasterlarining iqtisodiy rivojlanishdagi roli va taʼsirini oʻrganish uchun quyidagi metodologiyalarni qoʻllaydi:

Adabiyotlarni Tahlil Qilish: maqolani tayyorlash jarayonida turli ilmiy maqolalar, statistik hisobotlar, xalqaro tashkilotlarning maʼlumotlari va iqtisodiy tahlil natijalari kengaytirilgan tarzda oʻrganildi. Yuqori darajadagi klasterlar misollarini oʻrganish: Oʻzbekistondagi va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardagi muvaffaqiyatli paxta-

to‘qimachilik klasterlarining amaliy misollari chuqur tahlil qilindi. Statistik ma’lumotlar tahlili: Klasterlarning iqtisodiy ta’sirini baholash uchun iqtisodiy ko‘rsatkichlar, eksport statistikasi, ish o‘rinlari statistikasi va boshqa muhim ma’lumotlar to‘plandi va tahlil qilindi.

### TAHLIL VA NATIJALAR


Paxta xom-ashyosini yetishtirish va uni sotish faoliyatini 2017-yillargacha bo‘lgan davrda “O‘zpaxtasanoat” uyushmasi tomonidan boshqarilgan. Mazkur uyushma fermer va dehqon xo‘jaliklari bilan bilan shartnoma tuzib, sanoat korxonalari uchun markazlashtirilgan xolda paxta tolasini shartnomada belgilangan rejalarga ko‘ra uyushmaga yetkazib bergan. Endilikda fermer va to‘qimachilik korxonasi o‘rtasida uzviylikni ta’minlovchi klaster tizimi shakllangan. 2020-yildan boshlab paxta xomashyosi ishlab chiqarish va majburiy sotish rejasi, uning narxini davlat tomonidan belgilash amaliyoti bekor qilinadi. Shuningdek, davlatga majburiy g‘alla sotish hajmi 25 foizga kamaytirilishi belgilangan. O‘zbekistonda 2018-yillardan keyin shakllangan paxta-to‘qimachilik klasterlarining soni 1-jadvalda keltirilgan [10-13].

1-jadval.

O‘zbekistonda paxta to‘qimachilik klasterlarining o‘shish surati

№	O‘lchov birligi	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil	2025-yilning 2018-yilga nisbatan o‘shish sur‘ati
1.	dona	15	75	96	122	134	142	136	122	8 barobar

Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyati izchil ravishda kengayib bordi. Xususan, 2017-yilda O‘zbekistonda atigi 1 ta klaster mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2018-yilga kelib ular soni 15 taga yetdi. 2019-yilda klasterlar soni keskin o‘shib, 75 tani tashkil etdi. Keyingi yillarda ham ushbu tendensiya saqlanib qolib, 2020-yilda 96 taga, 2021-yilda 122 taga, 2022-yilda esa jami 134 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyat yuritdi. 2023-yilga kelib esa mazkur ko‘rsatkich 142 taga yetdi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekistonda paxta to‘qimachilik klasterlari sonining 2018–2025-yillardagi o‘shish dinamikasi(birlikda)<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

2018-yilda mavjud 15 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan 157,7 ming gektar (respublikadagi paxta ekilgan jami maydonning 14,7 foizi) maydonda 340,6 ming tonna mahsulot yetishtirilib, o‘rtacha hosildorlik 21,5 sentnerni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda tarmoqdagi klasterlar soni 77 ta, ular paxta ekkan maydonlar hajmi 682,4 ming gektarga (jami paxta maydonlarining 66 foizi), mazkur klasterlar tomonidan yetishtirilgan mahsulot miqdori esa 1,82 million tonnaga yetdi. O‘rtacha hosildorlik 26,7 sentnerni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 5,2 sentnerga ko‘p bo‘ldi. Darhaqiqat, 2020-yilda paxta-to‘qimachilik klasterlari soni 96 taga yetdi, ular tomonidan respublikadagi paxta maydonlarining 89,7 foizida – 927 ming gektar dalalarda 2,79 million tonna paxta xom ashyosi yetishtirildi, bir gektardan o‘rtacha hosildorlik 30,1 sentnerni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 3,4 sentnerga, 2018-yilga nisbatan esa 8,6 foizga ko‘p bo‘ldi.

2025-yilda paxta-to‘qimachilik klasterlarining 14 tasida (14,4 foiz) paxtani qayta ishlashning besh bosqichi to‘liq joriy etilgan bo‘lsa, 15 tasida (15 foiz) to‘rt bosqich, 19 tasida (19,6 foiz) uch bosqich, 30 tasida (30 foiz) ikki bosqich va 8 tasida (8,2 foiz) bir bosqichli qayta ishlash jarayonlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, 2021-yilda paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan paxtani chuqur qayta ishlashni rivojlantirish maqsadida umumiy qiymati 23,71 trillion so‘mni tashkil etuvchi, jumladan 6,0 trillion so‘mi klasterlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan 225 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasining 136 ta tumanida joylashgan 134 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari hamda ularga biriktirilgan 29 ming nafar fermer xo‘jaliklari tomonidan jami 1 million 32 ming gektar yer maydonida g‘o‘za yetishtirish ishlari amalga oshirildi.

2024-yilda O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida salmoqli ijobiy o‘zgarishlar hamda barqaror rivojlanish jarayonlari kuzatildi. Respublika miqyosida 136 ta klaster va 30 mingdan ziyod fermer xo‘jaliklari paxta yetishtirish hamda uni qayta ishlash jarayonlarida faol ishtirok etdi. Shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlari paxta xom ashyosini yetishtirish bosqichida ilg‘or innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish orqali paxta hosildorligini o‘rtacha qo‘shimcha 10 sentnerga oshirishga erishdi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Ular mahsulot ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, raqobatbardosh mahsulot yaratish va ichki hamda tashqi bozorlarda o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilmoqda.

Mahsulot ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida xomashyo bazasiga yaqinlik, resurslardan samarali foydalanish, qo‘shilgan qiymat zanjirini to‘liq qamrab olish hamda kichik va yirik korxonalar o‘rtasida kooperatsiyani kuchaytirishni ko‘rsatish mumkin.

Klasterlar ushbu jarayonda strategik o‘rin tutib, xom ashyoni qayta ishlashdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni yagona tizimga birlashtiradi. Shu bilan birga, ular innovatsiya va investitsiyalarni faol jalb etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda eksport imkoniyatlarini kengaytirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Natijada, klasterlar mamlakatda ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish va iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta’minlashga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6351331>
2. «Paxta-to‘qimachilik klasteri – taraqqiyot lokomotivi» risola M.Rahmatov, B.Zaripov, B.Niyozmetov, M.Rahmatov, A.Bahromov O‘.Umurzoqov Germaniyaning “LAMBERT Academic Publishing” xalqaro ilmiy nashriyoti.
3. Jo‘rayev F.D. Agroklaster tizimida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirish modellari va ularni qo‘llash strategiyalari. Marketing jurnali 2-son, 2025. – 509-516 b. /
4. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
5. Rajabov I. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida agrosurslar bozori muvozanati va ishlab chiqarishning samaradorligi. Dis. iqtisod fanlari doktori. T.2006y 11bet.F
6. Abdullayev M. To‘qimachilik klasterlarida eksport salohiyatini oshirish va raqobatbardoshlik masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
7. Xamdamiyov B.B. Paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari. // «Iqtisodiy tahlil» jurnali, 2021, №4.
8. Karimov I.A., Rahmonov A.S. Qishloq xo‘jaligida klaster modelini joriy etishning nazariy asoslari. – Toshkent, 2019.
9. Nurmatov Sh. Agrosanoat majmuasida klasterlashtirish jarayonlari. – Toshkent: Fan, 2018.
10. Ketels C. Recent Research on Competitiveness and Clusters. – London: Oxford University Press, 2013.
11. Juraev F.D. Econometric Modeling of Intensity Measures of Resource Efficiency in Agrocluster Networks. American Journal of Economics and Business Management, 8(3), 2025. -1075–1083. / <https://textileexpo.uz/uz/main>



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

<b>Muharrir:</b>	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
<b>Ingliz tili muharriri:</b>	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
<b>Rus tili muharriri:</b>	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
<b>Musahhih:</b>	Karimova Shirin Zoxid qizi
<b>Sahifalovchi va dizaynerlar:</b>	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, dekabr, 12-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**